ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti



№10(3)
2026

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Elektron nashr. 594 sahifa,
13-oktyabr, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich – Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd), dotsent

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI
Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Karimova E.G. – Sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Raxmonova Z. A. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Sayimova D. K. – texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:
Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician
Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician
Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor
Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan
Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor
Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)
Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)
Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)
Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)
Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)
Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)
Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor
Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor
Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers "Yangi O'zbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor
Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)
Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor
Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service
Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor
Rakhmonova Z.A. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)
Sayimova D. K. – Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences
Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor
Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics
Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region
Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences
Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
• Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
• Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)
Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
• Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
• Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA CONTENTS СОДЕРЖАНИЕ

MUNDARIJA

Axborotlashgan jamiyatda xalq o'yinlari orqali shaxsni tarbiyalashning pedagogik imkoniyatlari 10
Abdullayeva Maryambibi Djumaniyazovna

Sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish sharoitida talabaning axborot xavfsizligi kompetensiyasi: tushunchaning chegaralari va tarkibi 16
Mustafoyev Shahzod Mamanazar o'g'li

Navoiy viloyati ziyoratgohlari tarixi va ularning aholi hayotida tutgan o'rni 21
Nazarova Nozima Narzulloyevna

Fransuz tilidagi predloglar va o'zbek tilidagi kelishik qo'shimchalarining qiyosiy tahlili 26
Ro'zimova Yulduz Farhodovna

Umumta'lim maktab direktorlari emotsional intellektining boshqaruv faoliyatidagi ahamiyati 30
Rustamova Barno Abduxalilovna

Kikbokschilarda motivatsion omillar va musobaqa faoliyati samaradorligini takomillashtirish metodikasi: nazariy-tahliliy asoslash 34
Mamaraximov Azim Karakulovich

Pedagogik diagnostikaning umumiy metodlari va ularning ta'lim jarayonidagi ahamiyati 39
Daminova Shoxista Farxodovna

Dual ta'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilarni inklyuziv ta'lim faoliyatiga tayyorlashning nazariy-metodologik asoslari 45
Oybekova Shukrona Oybek qizi

O'qish savodxonligini rivojlantirishda sun'iy intellekt asosidagi individual ta'lim texnologiyalarini takomillashtirish 51
Abduvaliyeva Gulchexra Mamadjon qizi

Abu Rayhon Beruniy ilmiy merosi asosida talabalarda kartografik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari 56
Kazakbayeva Muhabbat Turabayevna

Brayl yozuvi ko'zi ojiz shaxslarning inklyuziv imkoniyatlarini ta'minlashning muhim vositasi sifatida 62
Panjiyev Shokir Zokir o'g'li

Дидактический потенциал подкастов в обучении русскому языку студентов 67
Ибрагимова Нилуфар Туйчиевна

Maxsus ta'lim tizimida differensiallashtirilgan va individuallashtirilgan o'qitishning metodik asoslari 72
Karimova Nilufar Boltaboyevna

Xorijiy til o'qituvchilarida kasbiy so'nish namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari 78
Matchanova Dilorom Karimovna

Raqamli ta'lim ekotizimi asosida talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etishning pedagogik asoslari 83
Otamuratov Maqsudbek Shonazarovich

Yunon-rim kurashchilarining texnik-taktik tayyorgarligini individuallashtirish: pedagogik model va zamonaviy baholash metodikasi 87
Po'latjonov Shoxzod Avazjon o'g'li

Buyrak hujayrali saratonini erta aniqlashda ultratovush tekshiruvining diagnostik imkoniyatlari 92
Saydamatov Hayitboy Ulug'bek o'g'li

Проблемы и перспективы подгоготовки специалистов сферы искусств и культуры в ситстеме высшего образования 96
Кошелева Антонина Фёдоровна

Sun'iy intellekt texnologiyalari sharoitida ta'limning insonparvarlik paradigmasini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari 99
Yaqubova Dinora Bahodirovna

Behbudiyning ta'lim-tarbiya sohasidagi qarashlari va o'qitish metodlari 104
Islomova Lola Abdig'ani qizi

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida lingvomadaniy kompetensiyani shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari 110
Djabbarova Feruza Azamovna

The Role of Phonation Energy Efficiency in Sound Changes 114
Baxramova Shaxnoza Erkinovna

Mustaqillik yillarida ichki migratsiyaning shakllanish jarayonlari 119
Mo'minov Ziyovuddin Bakirjon o'g'li

Raqamli ta'lim davrida bo'lajak o'qituvchilarda mustaqil ta'lim trayektoriyasini loyihalash: "pedagogik mahorat" fani misolida 123
Shabdullayeva Lazokatxon Orifbekovna

Современные подходы к управлению образовательным учреждением: теоретические основы и особенности реализации 128
Джуманиязова Дильбар Азатовна

Ko'zi ojiz o'quvchilarga funksiyalar grafiklarini o'rgatishda ko'p sezgili ta'lim yondashuvlaridan foydalanish 132
Abdullayev Umid Amrilloyevich

Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini takomillashtirishning tashkiliy-pedagogik omillari 139
G'oyibnazarov Rahmatilla

Inklyuziv ta'limda fanlarni o'qitishda maxsus pedagog faoliyati 144
Hurriyat Yoqubova

Modelling the Semantic Field of Ma'naviyat in a Specialised Parallel Corpus: Theoretical and Methodological Foundations of Cross-Genre Discourse Analysis 149
Mukhlisa Chorieva Jumamurodovna

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida masofaviy axborot-kutubxona xizmatlari samaradorligini oshirish metodikasi 154
G'oyibova Sayyora

Talabalarda psixologik rezilientlikni takomillashtirishning emotsional-kognitiv determinantlari 160
Hayitova Oydinniso Aliyevna

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini inklyuziv ta'lim sharoitida samarali faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish 164
Mamasiddikova Maftuna Akbarjon qizi

Fizika ta'limida muammoli masalalarni yechish ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik strategiyalari 168
Ostonova Malika Uktam qizi

Texnika oliy ta'lim muassasalarida matematika fanlarini o'qitish metodikasini raqamli ta'lim texnologiyalari asosida takomillashtirish 173
Vahobov Mehroj Alisher o'g'li

Tarbiya, ta'lim, rivojlanish va shakllanish kategoriyalarining mazmun-mohiyati va o'zaro munosabati 178
Xodjayeva Munisa Utkur qizi

Birlamchi sog'liqni saqlash tizimida bo'lajak oilaviy shifokorlarning boshqaruvchanlik kompetensiyalari texnologiyasini shakllantirish 183
Abduvaxobova Nozima Raxmanovna

Uchburchak o'rta chizig'ining xossasini o'qitish va undan kelib chiqadigan dastlabki xulosalar 189
E. E. Jumayev, O'. X. Aytuvganov

Maktabgacha ta'limda musiqmashg'ulotlarini raqamli ta'lim resurslari asosida tashkil etishning nazariy-metodologik asoslari 195
G'ulomova Muslimaxon Ahmadillo qizi

Teaching Medical Terminology Through Data-Driven Learning: A Corpus-Informed Model for English for Medical Purposes 199
Isomiddinova Diyora Qutbiddin qizi

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Jismoniy tarbiya yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalari talabalarining jismoniy tayyorgarlik tizimida gimnastika mashqlarini qo'llash metodikasining o'ziga xos xususiyatlari 209
Karimov Duysenbay Djienbaevitch

Filolog talabalarga ingliz va malay tillarini o'qitishda sun'iy intellekt vositalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari 213
Yuldashev Azim Abdurahmonovich

Qozoq, rus, o'zbek va ingliz tillarida sotsiolingvistik terminlarning tarjimasi: terminologik ekvivalentlikning qiyosiy tahlili 218
Yuldasheva Mahzuna Omonullayevna

Psixolog talabalarda empatiya, kommunikativ kompetentlik va refleksiv qobiliyatlarning konsultativ salohiyat rivojlanishidagi o'zaro bog'liqligi 224
Akbaraliyeva Asilaxon Tojiddinovna

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning individual kognitiv moslashuvchanligini kreativ didaktik o'yinlar vositasida rivojlantirish metodlari 230
Ortiqova Zulfiya Nurmaxamatovna, Mirzakarimova Anoraxon Ashurali qizi

Raqamli ta'lim muhitida 7–9-sinf o'quvchilarining mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etish 236
Paizbekov Timurlan Kurbanbayevich

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida darsga ijobiy munosabatni shakllantirishning pedagogik-psixologik omillari 240
Tursunbayeva Yulduz

Искусственный интеллект и цифровая трансформация в преподавании русского языка 246
Абдусаломова Мохичехра Эргашевна

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi nutq madaniyati va pedagogik muloqot odobi 250
M. S. Ibragimova

Yangi zamon tarbiyachisining pedagogik imidji va uning ahamiyati 256
Dosova Bakposhsha Odamboy qizi

Kognitiv faoliyatning nazariy-pedagogik mohiyati va ta'lim jarayonidagi ahamiyati 259
Xujobekov Bobur Xushboq o'g'li

Maktabgacha ta'limda innovatsion boshqaruvni joriy etishning texnologik modeli: dual ta'lim yondashuvi asosida 263
G'aniyeva Aziza Zayniddinovna

Shaxs addiktiv xulq-atvorining psixologik determinantlari va o'ziga xos xususiyatlari: nazariy-tahliliy yondashuv 268
Mamajonova Shohista Kamoldinovna

Filologik ta'lim samaradorligini oshirishda kognitiv va kommunikativ strategiyalar integratsiyasining didaktik imkoniyatlari 275
Pardayeva Umida Norbayevna

Nutq kamchiliklari mavjud o'quvchilarni inklyuziv sinfda differensial ta'lim texnologiyalari orqali rivojlantiruvchi metodik tizimini takomillashtirish 281
Shukurova Dilbar Shukrullo qizi

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida og'zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari va mavjud muammolari 290
Sharipova Saboxon Abdillajonovna

Языковая репрезентация национального характера в русской и узбекской прозе 295
Рахмонова Рухсора Дилшодовна, Обидова Фарангиз Акмаловна

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini shakllantirishda "ingliz tilini o'qitish metodikasi" fanining funksional ahamiyati 300
Tuxtayeva Nilufar Achilovna

O'qituvchilarning kasbiy-kreativ kompetensiyalarini rivojlantirish: xorijiy tajriba va uning tahlili 304
Amanyo'lov Sindor Faxriddin o'g'li

Muhammad Sodiq Qoshg'ariy asarlari asosida talabalarda axloqiy kompetentlikni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish mexanizmlar 314
Muxamedxodjayeva Mavjuda Axbarovna

O‘quvchilarga ekologik ta’lim berishda innovatsion texnologiyalarni qo‘llashning samaradorligi 318
Abdupattayev Hasanboy Abdurahmonovich

8–9-sinf o‘quvchilariga ingliz tilidagi fe’lli iboralarni o‘rgatishda interferensiyani bartaraf etishning metodik mexanizmlari 321
Majidova Kamola Majid qizi

Umumta’lim maktablarida fizika ta’limi samaradorligini oshirishda VR/AR texnologiyalariga asoslangan immersiv o‘qitish metodikasini takomillashtirish 326
Soyibnazarov Abbosjon Ikromjonovich

Innovatsion ta’lim texnologiyalari jarayonida talabalar o‘quv-bilish faolligini oshirish metodikasi 331
Ruziyev Shuxrat Islamovich

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni boshqarishni takomillashtirish 335
Gulxayo Samandarova Abdukarim qizi

Ta’lim muassasalari menejerlarida boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari 344
Abdug‘aniyev Otabek Abduhamidovich

Развитие творческого и критического мышления студентов-филологов в процессе изучения художественного текста (на материале повести Ф. Кафки “Превращение”) 349
Урунова Фируза Хайдаровна

Theoretical and Methodological Foundations of Developing English Listening Comprehension Skills Among Grades 5–6 Students in Karakalpakstan 355
Azirbayeva Alima Makhsetbayevna

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida sog‘lom ovqatlantirish tizimini boshqarish mexanizmini takomillashtirish 360
Fazilov Shuxrat Shavkatovich

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun bo‘lajak tarbiyachilarning axborot-kommunikatsiya texnologiyasi bo‘yicha tayyorgarligini oshirish 364
Umataliyev Zafar Asqaraliyevich

Oliy ta’lim talabalarining loyihaviy kompetensiyalarini sun’iy intellekt vositasida rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari 369
Kunisova Gulmira Urazxonovna

Dars jarayonida axborot ta’lim resurslarini qo‘llash metodikasi: didaktik maqsad, dars bosqichi va resurs turini uyg‘unlashtirish modeli 373
Alijonova Shahnozaxon Kozimjon qizi, Hojiyeva Zulfiya O‘ktamovna

Yuqori sinf o‘quvchilarida jismoniy madaniyat vositalari yordamida sog‘lom turmush tarzini shakllantirishning pedagogik asoslari 378
G. A.Tulepova

Fikrlash sifati mezonlari asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish 382
Inomjonova Barnoxon Tel’manjon qizi

Integratsiyalashgan lingvistik kontekst asosida talabalarning ingliz tilidagi kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi 387
Ayatov Raximberdi Ibragimovich

Maxsus pedagogika fanlarida nazariya va amaliyot uyg‘unligini ta’minlash usullari hamda texnologiyalari 393
Maqsudova Nodira Alijonovna

Major Approaches to Speech Acts Theory and Politeness Strategies in Contemporary Linguistics 400
Nurdinova Muhabbat Rahmatullayevna, Roziyeva Gulruh Khayrullayevna

Generativ sun’iy intellekt vositalari asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mustaqil pedagogik ijodkorligini rivojlantirishning nazariy asoslari 407
Qulmuminov O‘rolboy Safar o“li

Representation of Big C and Small C Cultures in Textbooks 413
Sugdiyona Kuldasheva, Karima Rakhmonberdiyeva

Talabalarda raqamli etikani shakllantirishning pedagogik asoslari 417
Eshchanova Xolida Xudayarovna

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Tarbiya fanini o‘qitish jarayonida talabalarning pedagogik taksonomiyadan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari 423
Turdiyeva Shohida Anvardjanovna

Informatika fanini o‘qitishda sun’iy intellektdan foydalanish metodikasi 430
Xalikov Akbar Tilovberdiyevich, Mamatqulova Umida Eshmirzayevna

Chet tilini o‘rganishda fransuz klassik adabiyoti: Gi de Mopassan ijodining lingvomadaniy ahamiyati 435
Norova Mohitobon Fayzulloyevna

Talabalarni integrativ metodlar orqali zamonaviy fikrlashga o‘rgatishning nazariy asoslari 439
Kamiljonova Dilnoza Qahramon qizi

Turli ta’lim yo‘nalishlaridagi talabalarni dzyudo to‘garagiga jalb etishning tashkiliy-metodik modeli 443
Azimov Laziz Ahrorovich

Zamonaviy psixologiyada prokrastinatsiya fenomenining tasniflanishi 448
M. L. Aripova

Ruhiy farovonlikning psixologik mohiyati va tarkibiy komponentlari 452
Abdullayeva Durdona Ravshanjon qizi

Muhandislik terminologiyasi va ingliz tili ta’limi integratsiyasi asosida bo‘lajak muhandislarning leksik kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi 456
Abdullayeva Ozoda Islomovna

Globallashuv sharoitida bo‘lajak pedagoglarda nutqiy mobillikni rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari 462
Abdumajitova Maftuna Ixtiyor qizi

Talabalarda psixologik chidamlilik va stressni yengish (koping) strategiyalari o‘rtasidagi bog‘liqlik (OTM talabalari misolida) 467
Choriyorova Shahriniso To‘lqin qizi

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativ va muammoli fikrlash ko‘nikmalarini STEM-loyihalar asosida rivojlantirish metodikasi 473
Jo‘rayeva Nasiba Komil qizi

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida innovatsion pedagogik texnologiyalarning kognitiv rivojlanishiga ta’sirini tadqiq etish 480
Nasimova Dilfuza

The Essence and Classification of Speech Acts Theory in Modern Linguistics 484
Nurdinova Muhabbat Rahmatullayevna, Roziyeva Gulruh Khayrullayevna

Xorijiy til (ingliz tili) ta’limida o‘quvchilarning tarjimonlik kompetensiyasini shakllantirish muammosining zamonaviy holati 490
Sodiqova Umida Abdumajitovna

Konchilik yo‘nalishi talabalariga tibbiy bilim asoslarini o‘qitish metodikasini takomillashtirish 495
Yuldasheva Zarofat Igamberdiyevna

Исполнительский выбор и формирование импровизационной фразы в джазовом тромбоновом исполнительстве 501
Файзиев Баходир

Современные педагогические подходы в профессионально-методической подготовке педагогических кадров 508
Хайров Расим Золимхон угли, Ахмадова Севинч Абиркул кизи

Interaktiv raqamli hikoyalar asosida o‘quvchilarning axloqiy tanlov va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasi 513
Abdullayeva Surayyo Babojonovna

Pedagogika ta’lim yo‘nalishi talabalarining ilmiy-innovatsion loyihalarini baholash mezonlari va samaradorlik ko‘rsatkichlarini takomillashtirish 519
Xudayberganova Gulnora Tuxtabayevna

Technologies for Enhancing the Educational Effectiveness of Tourism in Higher Education on the Basis Of Integrating Modern Pedagogical Approaches 524
Nafasov Doniyor Shernafasovich

Xorazm xalq dostonlari asosida bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining ma’naviyatini rivojlantirish tizimi 530
Yakubov Zafarbek Madrimbayevich

Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining kognitiv rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashning pedagogik shart-sharoitlari..... 536
Qulmirzayeva Fotima Musurmonqul qizi

Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida matn ustida ishlash topshiriqlarini tasniflash mezonlari 541
Xudayorova Muhayyo Omonboy qizi

Ingliz tili ta’limida o‘quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish: nazariy asoslar va xorijiy amaliyot tahlili..... 549
Shahlo Isomiddinova

Bo‘lajak o‘qituvchilarda etik tafakkurni rivojlantirishga zamonaviy yondashuvlar 553
Maxkamova Dilafruz

Парные динамические кейсы как средство различения доказательной адаптации и ситуативной уступчивости будущего учителя..... 557
Дилхумор Эркиновна Мирзабдуллаева

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim muhitida o‘quv jarayonini loyihalash: o‘qituvchilar qarashlari va kuzatuvlarining tahlili 562
Ikramova Billura Muxamadovna

Kurashchilarning umumiy jismoniy tayyorgarligini takomillashtirishning ilmiy-metodik asoslari 567
Jumadurdiyev Bahodir Xolmamatovich

Dzyudochilarning texnik-taktik tayyorgarligini takomillashtirishning ilmiy-metodik asoslari 571
Komilov Azizjon Xoshimovich

Bo‘lajak informatika o‘qituvchilarini maktab darslarida sun’iy intellektdan bosqichma-bosqich foydalanishga tayyorlash: SI yordami darajalari va topshiriq loyihalash metodikasi 576
Jumayev Ilhom Nusratovich

O‘smir yoshdagi o‘quvchilarda ma’naviy ehtiyojlarni shakllantirishning mezonlari, ko‘rsatkichlari va diagnostik metodikasini takomillashtirish 582
Aliyev Islambek Tursinbayevich, Tilovova Qizlarxon Ishpulat qizi

O‘quvchilarning ijtimoiy-emotsional rivojlanish darajasini aniqlash va monitoring qilishda raqamli diagnostika metodlarini takomillashtirish 589
Xamroyeva Nargiza Shavkatovna

INTERAKTIV RAQAMLI HIKOYALAR ASOSIDA O‘QUVCHILARNING AXLOQIY TANLOV VA QAROR QABUL QILISH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Abdullayeva Surayyo Babojonovna
Urganch davlat universiteti tadqiqotchisi
ORCID: 0009-0004-8552-8329

Annotatsiya: Mazkur maqolada interaktiv raqamli hikoyalar asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining axloqiy tanlov va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasi yoritilgan. O‘quvchilarda axloqiy vaziyatlarni anglash, xatti-harakatlarning mumkin bo‘lgan oqibatlarini oldindan baholash, muqobil yechimlarni taqqoslash, mustaqil qaror qabul qilish va o‘z tanlovini asoslash ko‘nikmalarini shakllantirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Shuningdek, interaktiv hikoyalarning pedagogik imkoniyatlari, ularni ta’lim jarayoniga joriy etish bosqichlari hamda “Axloqiy vaziyatni tahlil qilish”, “Qarorlar daraxti” va “Hikoyaning muqobil yakuni” kabi metodik usullar taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: interaktiv raqamli hikoya, axloqiy tanlov, qaror qabul qilish, boshlang‘ich ta’lim, “Tarbiya” fani, axloqiy tafakkur, muammoli vaziyat, refleksiya, raqamli ta’lim, mustaqil fikrlash.

Abstract: This article highlights a methodology for developing moral choice and decision-making skills in primary school students based on interactive digital stories. Particular attention is paid to the formation of students’ skills in understanding moral situations, anticipating possible consequences of actions, comparing alternative solutions, making independent decisions, and justifying their choices. Additionally, the pedagogical possibilities of interactive stories, the stages of their implementation in the educational process, and methodological approaches such as “Analysis of the Moral Situation,” “Decision Tree,” and “Alternative Ending of the Story” are proposed.

Key words: interactive digital narrative, ethical choice, decision-making, primary education, subject “Upbringing,” ethical thinking, problem situation, reflection, digital education, independent thinking.

Аннотация: В данной статье освещается методика развития навыков нравственного выбора и принятия решений у учащихся начальных классов на основе интерактивных цифровых рассказов. Особое внимание уделяется вопросам формирования у учащихся навыков понимания нравственных ситуаций, предварительной оценки возможных последствий действий, сравнения альтернативных решений, принятия самостоятельных решений и обоснования своего выбора. Также рассмотрены педагогические возможности интерактивных рассказов, этапы их внедрения в образовательный процесс и предложены такие методические приёмы, как “Анализ нравственной ситуации”, “Дерево решений” и “Альтернативный конец рассказа”.

Ключевые слова: интерактивный цифровой рассказ, нравственный выбор, принятие решений, начальное образование, предмет “Воспитание”, нравственное мышление, проблемная ситуация, рефлексия, цифровое образование, самостоятельное мышление.

KIRISH

Zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchilarga bilim berish bilan bir qatorda, ularda hayotiy vaziyatlarda to‘g‘ri yo‘l tanlash, o‘z xatti-harakatlarini nazorat qilish va qabul qilgan qarorlari uchun mas’uliyatni his etish ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim davrida bolalarning axloqiy qarashlari, xulq-atvor me’yorlari va ijtimoiy munosabatlari shakllanib boradi. Shu sababli ta’lim jarayonida o‘quvchilarni turli axloqiy vaziyatlar bilan tanishtirish, ularni mustaqil fikrlashga undash va ongli qaror qabul qilishga o‘rgatish dolzarb pedagogik vazifalardan biridir.

Axloqiy tanlov shaxsning muayyan vaziyatda mavjud bo‘lgan bir nechta xatti-harakat variantlari orasidan axloqiy me’yorlar, qadriyatlar va kutilayotgan oqibatlarni hisobga olgan holda qaror tanlash jarayonidir. Qaror qabul qilish esa vaziyatni anglash, muammoni aniqlash, muqobil variantlarni baholash, ulardan birini tanlash va tanlov natijasini tahlil qilishni qamrab oladi. Bu jarayonlar o‘quvchidan nafaqat axloqiy qoidalarni bilishni, balki ularni amaliy vaziyatlarda qo‘llay olishni ham talab qiladi.

An'anaviy tarbiyaviy mashg'ulotlarda o'quvchilarga ko'pincha tayyor axloqiy xulosalar taqdim etiladi. Biroq o'quvchining muayyan vaziyat yuzasidan mustaqil fikr yuritishi, turli qarorlarning oqibatlarini solishtirishi va o'z nuqtayi nazarini dalillar bilan izohlashi uchun faol ishtirokni ta'minlovchi metodlardan foydalanish zarur. Interaktiv raqamli hikoyalar bu borada muhim pedagogik imkoniyatlarga ega. Bunday hikoyalarda voqealar rivoji o'quvchining tanloviga qarab o'zgarishi, qahramonning keyingi harakati uning qaroriga bog'liq bo'lishi va har bir tanlovning turli oqibatlari ko'rsatilishi mumkin. Natijada o'quvchi hikoyani shunchaki kuzatuvchi emas, balki voqealar rivojiga ta'sir ko'rsatuvchi faol ishtirokchi sifatida qatnashadi.

Maqolaning maqsadi - interaktiv raqamli hikoyalar asosida o'quvchilarning axloqiy tanlov va qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan metodik yondashuvni ishlab chiqish va uning pedagogik imkoniyatlarini asoslash.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining axloqiy tanlov va qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish masalalari pedagogika, tarbiya nazariyasi, yosh psixologiyasi hamda raqamli ta'lim texnologiyalari doirasida o'rganib kelinmoqda. Mazkur yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlarda o'quvchilarning axloqiy tafakkurini shakllantirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish, muammoli vaziyatlarda ongli qaror qabul qilish va interaktiv metodlardan foydalanish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

O. Musurmonovaning tadqiqotlarida ma'naviy qadriyatlarning yoshlar tarbiyasidagi o'rni, shaxsning axloqiy kamoloti va tarbiyaviy jarayonning ijtimoiy ahamiyati yoritilgan [3]. Mazkur ilmiy yondashuv boshlang'ich sinf o'quvchilarida halollik, adolat, mas'uliyat va mehr-oqibat kabi axloqiy fazilatlarni rivojlantirishning nazariy asoslarini belgilashda muhim ahamiyatga ega.

B. Xodjayevning umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyotiga oid ilmiy qarashlari ta'lim va tarbiya jarayonining o'zaro bog'liqligini tushuntirish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi [4]. Ushbu yondashuvdan kelib chiqib, axloqiy tarbiya jarayonida o'quvchilarning faqat bilim va tushunchalarini emas, balki ularni amaliy vaziyatlarda qo'llash ko'nikmalarini ham rivojlantirish maqsadga muvofiq.

O. Jabborova va Z. Umarovaning boshlang'ich ta'limda "Tarbiya" fanini o'qitish metodikasiga bag'ishlangan ishida tarbiyaviy mashg'ulotlarni tashkil etishning metodik jihatlari yoritilgan [5]. Mazkur yo'nalishdagi qarashlar "Tarbiya" fani mashg'ulotlarida hayotiy vaziyatlardan foydalanish, o'quvchilarni muhokamaga jalb etish va axloqiy tushunchalarni amaliy faoliyat bilan bog'lash imkoniyatlarini ko'rib chiqishda ahamiyatlidir.

B. Qurbonova va S. Madaminovaning tadqiqotida boshlang'ich sinf o'quvchilarining axloqiy-ma'naviy qadriyatlarini shakllantirish masalalari o'rganilgan [6]. Ushbu tadqiqot mavzusi o'quvchilarda axloqiy me'yorlarga ongli munosabatni rivojlantirish, xatti-harakatlarni baholash va ijtimoiy munosabatlarda mas'uliyatli yondashuvni shakllantirish masalalari bilan bevosita bog'liq.

Z. Maxsetovaning ilmiy ishida raqamli hikoyalashning yozma nutqni rivojlantirishdagi pedagogik va lingvistik imkoniyatlari ko'rib chiqilgan [7]. Mazkur tadqiqot raqamli hikoyalash vositalaridan ta'lim jarayonida foydalanish masalalariga bag'ishlangani bilan ahamiyatlidir. Ushbu yondashuvni axloqiy tarbiya mazmuniga moslashtirish orqali raqamli hikoyalarni o'quvchilarning muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, muqobil yechimlarni taqqoslash va o'z qarorlarini asoslash faoliyati bilan bog'lash mumkin.

R. Ishmuhamedov, A. Abduqodirov va A. Pardayevning ta'limda innovatsion texnologiyalardan foydalanishga oid ishida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayoniga tatbiq etish masalalari yoritilgan [8]. Mazkur ilmiy-metodik yo'nalish o'quvchilarning faolligini oshirish, mustaqil fikrlashini rag'batlantirish hamda interaktiv mashg'ulotlarni tashkil etishning metodik asoslarini belgilashda foydalanilishi mumkin.

Xorijiy olimlardan J. Brunerning narrativ tafakkurga oid nazariy qarashlari hikoyalarning voqealar va inson xatti-harakatlarini anglashdagi ahamiyatini tushuntiradi. B. R. Robin raqamli hikoyalarning ta'lim jarayonidagi imkoniyatlarini o'rgangan bo'lsa, A. Sadik raqamli hikoyalashni o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlovchi texnologik-pedagogik yondashuv sifatida tadqiq etgan. Ushbu ilmiy qarashlar interaktiv raqamli hikoyalarning axloqiy vaziyatlarni ko'rgazmali yoritish va o'quvchilarning qaror qabul qilish faoliyatini tashkil etishdagi imkoniyatlarini nazariy jihatdan asoslashga yordam beradi.

Mahalliy va xorijiy ilmiy yondashuvlarni umumlashtirish asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining axloqiy tanlov va qaror qabul qilish ko'nikmalarini interaktiv raqamli hikoyalar orqali rivojlantirish bo'yicha integratsiyalashgan metodik yondashuvni ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Mazkur maqolada axloqiy vaziyatni anglash, muqobil yechimlarni aniqlash, qarorlar oqibatini baholash, mustaqil tanlovni asoslash va refleksiya bosqichlarini birlashtiruvchi metodika taklif etiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada pedagogik tahlil, ilmiy-nazariy manbalarni o‘rganish, taqqoslash, umumlashtirish va metodik modellashtirish usullaridan foydalanildi. Taklif etilgan metodika boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlari, axloqiy tushunchalarni hayotiy vaziyatlar orqali o‘zlashtirishi va ko‘rgazmali materiallar bilan ishlash ehtiyojini hisobga olgan holda ishlab chiqildi.

Interaktiv raqamli hikoyalarning pedagogik mohiyati

Interaktiv raqamli hikoya - matn, tasvir, ovoz, animatsiya va boshqa multimedia vositalari yordamida yaratilgan, foydalanuvchining tanlovi yoki harakatiga qarab voqealar rivoji o‘zgarishi mumkin bo‘lgan hikoya shaklidir. Uning asosiy xususiyati o‘quvchiga voqeani kuzatish bilan cheklanmasdan, qahramonning qarorlarini belgilash va voqea natijalarini tahlil qilish imkonini berishidir.

Axloqiy tarbiya jarayonida interaktiv hikoyalar quyidagi vazifalarni bajarishi mumkin:

1. O‘quvchini axloqiy muammoli vaziyat bilan tanishtirish;
2. Muqobil xatti-harakatlarni aniqlashga yo‘naltirish;
3. Qarorlarning ehtimoliy oqibatlarini ko‘rsatish;
4. O‘quvchining tanlovini asoslashga undash;
5. Boshqa insonlarning manfaatlari va his-tuyg‘ularini hisobga olishga o‘rgatish;
6. Qaror natijalarini qayta ko‘rib chiqish va xulosa chiqarish imkonini yaratish.

Mazkur imkoniyatlardan samarali foydalanish uchun hikoyaning mazmuni aniq tarbiyaviy maqsadga yo‘naltirilishi, muammoli vaziyat o‘quvchining yoshiga mos bo‘lishi va tanlov variantlari o‘rtasida mazmunli farq mavjud bo‘lishi lozim.

Axloqiy tanlov va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish bosqichlari

Taklif etilayotgan metodika besh bosqichdan iborat.

1. Muammoli vaziyatni anglash bosqichi.

O‘quvchilarga qahramon duch kelgan axloqiy vaziyat aks ettirilgan qisqa raqamli hikoya namoyish etiladi. Masalan, o‘quvchi sinfdoshining yo‘qolgan buyumini topib oladi yoki do‘sti boshqa o‘quvchiga nisbatan adolatsiz munosabatda bo‘layotganini ko‘radi. O‘quvchilar vaziyatdagi muammoni aniqlashga harakat qiladilar.

Asosiy savollar:

- Qahramon qanday muammoga duch keldi?
- Ushbu vaziyatda kimlarning manfaatlari mavjud?
- Nima uchun bu vaziyatda qaror qabul qilish muhim?

2. Muqobil yechimlarni aniqlash bosqichi.

O‘quvchilar qahramon amalga oshirishi mumkin bo‘lgan bir nechta harakat variantlarini taklif qiladilar. O‘qituvchi ularni darhol to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri deb baholamaydi, balki har bir variantning mazmunini tushuntirishga undaydi.

Masalan, topilgan buyumni o‘zida qoldirish, egasini izlash yoki o‘qituvchiga topshirish variantlari muhokama qilinadi.

3. Qarorlar oqibatini baholash bosqichi.

Har bir muqobil variantning ehtimoliy natijalari tahlil qilinadi. O‘quvchilar tanlovning o‘ziga, boshqa insonlarga va jamoaga qanday ta’sir ko‘rsatishini izohlaydilar. Bunda “Qarorlar daraxti” usulidan foydalanish mumkin.

4. Qaror qabul qilish va uni asoslash bosqichi.

O‘quvchi mavjud variantlardan birini tanlaydi va nima sababdan shu qarorga kelganini tushuntiradi. Qaror axloqiy me’yorlar, halollik, adolat, mehr-oqibat va mas’uliyat kabi tushunchalar bilan bog‘lab izohlanadi.

5. Refleksiya va xulosa chiqarish bosqichi.

Hikoyaning tanlangan yo‘nalishi davom ettiriladi va natijasi ko‘rsatiladi. O‘quvchilar o‘z qarorlarini qayta ko‘rib chiqishlari, boshqa variantlarning oqibatlarini muhokama qilishlari va kundalik hayotda shunga o‘xshash vaziyat yuzaga kelganda qanday yo‘l tutishlarini tushuntirishlari mumkin.

Ushbu bosqichlarning izchil tashkil etilishi axloqiy muammoni anglashdan boshlab, qaror qabul qilish va uning oqibatlarini tahlil qilishgacha bo'lgan o'quv faoliyatini qamrab oladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Nazariy-metodik tahlil asosida interaktiv raqamli hikoyalarni o'quvchilarning axloqiy tanlov va qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirishning quyidagi metodik imkoniyatlari belgilandi.

Birinchidan, interaktiv hikoyalar axloqiy tushunchalarni mavhum ta'riflar orqali emas, balki hayotiy vaziyatlar orqali o'zlashtirishga yordam berishi mumkin. O'quvchi halollik, adolat yoki mas'uliyatning mohiyatini qahramonning xatti-harakati va uning oqibatlarini tahlil qilish orqali anglaydi.

Ikkinchidan, muqobil tanlovlarning mavjudligi o'quvchini mustaqil fikrlashga undaydi. Qahramonning harakati oldindan belgilab qo'yilmagani sababli o'quvchi vaziyatni tahlil qilishi, mavjud variantlarni taqqoslashi va o'z qarorini shakllantirishi kerak bo'ladi.

Uchinchidan, voqealarning tanlovga qarab o'zgarishi sabab va oqibat munosabatlarini tushunish imkonini yaratadi. O'quvchilar ayrim qarorlar boshqalarning ko'nglini og'ritishi, adolatsizlikka olib kelishi yoki, aksincha, muammoni tinch yo'l bilan hal etishi mumkinligini tahlil qiladilar.

To'rtinchidan, guruhli muhokama va hamkorlikdagi hikoya yaratish o'quvchilarning o'z fikrini ifodalash, boshqa qarashlarni tinglash va asosli dalillar orqali kelishuvga erishish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Beshinchidan, raqamli hikoyaning yakunini o'zgartirish imkoniyati o'quvchilarga o'z qarorlarini qayta baholashga sharoit yaratadi. Bu jarayon xatoni tan olish, boshqa yechimlarni ko'rib chiqish va yangi vaziyatlarda mas'uliyatliroq qaror qabul qilishga tayyorlanish uchun foydali bo'lishi mumkin.

Amaliy metodik topshiriq namunasi

"Yo'qolgan hamyon" interaktiv hikoyasi

Vaziyat: Maktab hovlisida bir o'quvchi ichida pul va egasining ismi yozilgan kartochka bo'lgan hamyonni topib oladi. Uning oldida bir nechta tanlov mavjud.

Birinchi tanlov:

1. Hamyonni o'zida olib qolish.
2. Hamyon egasini izlash.
3. Hamyonni o'qituvchiga yoki maktab ma'muriyatiga topshirish.

Ikkinchi bosqich: O'quvchi tanlovini belgilagach, hikoya shu qarorga mos ravishda davom etadi. Masalan, hamyon egasini izlash yoki mas'ul kattaga topshirish orqali buyumni qaytarish imkoniyati yuzaga keladi. Boshqa variantlarda esa egasi buyumini yo'qotgani sababli tashvishlanishi yoki muammo yuzaga kelishi mumkin.

Muhokama savollari:

1. Qaysi qaror axloqiy jihatdan maqbul va nima uchun?
2. Hamyon egasi o'z buyumini yo'qotganda qanday hislarni boshdan kechirishi mumkin?
3. Qahramon o'z manfaatini va boshqa inson manfaatini qanday muvozanatlashtirishi kerak?
4. Tanlangan qaror qanday oqibatlarga olib kelishi mumkin?
5. Siz shunday vaziyatga duch kelsangiz, qanday yo'l tutardingiz?

Kutiladigan o'quv faoliyati: O'quvchilar muammoni aniqlaydilar, muqobil yechimlarni taqqoslaydilar, qaror qabul qiladilar va uni halollik, adolat hamda mas'uliyat tushunchalari bilan bog'lab asoslaydilar.

Ushbu topshiriq namuna sifatida ishlab chiqilgan. Uning o'quvchilarga ta'siri va samaradorligi amaliy mashg'ulotlarda kuzatuv hamda diagnostika orqali tekshirilishi lozim.

Ko'nikmalarni baholash mezonlari

O'quvchilarning axloqiy tanlov va qaror qabul qilish ko'nikmalarini baholashda quyidagi mezonlardan foydalanish mumkin (1-jadval).

1-jadval: **O‘quvchilarning axloqiy tanlov va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini baholash mezonlari va kuzatiladigan ko‘rsatkichlar**

Mezon	Kuzatiladigan ko‘rsatkich
Muammoni anglash	Vaziyatdagi axloqiy muammoni aniqlaydi va tushuntiradi
Muqobil yechimlar	Ikki yoki undan ortiq yechimni taklif qiladi
Oqibatlarni baholash	Har bir qarorning ehtimoliy natijalarini izohlaydi
Qarorni asoslash	Tanlovini axloqiy me’yorlar va dalillar bilan tushuntiradi
Refleksiya	O‘z qarorini qayta ko‘rib chiqadi va xulosa chiqaradi
Mezon	Kuzatiladigan ko‘rsatkich

Baholashda faqat o‘quvchining tanlagan varianti emas, balki uning fikrlash jarayoni, dalillari va vaziyatni tushunish darajasi ham hisobga olinishi zarur. Bitta axloqiy vaziyatda o‘quvchining fikrini tinglash bilan uning barqaror axloqiy ko‘nikmasi shakllangan, degan xulosaga kelib bo‘lmaydi. Buning uchun turli vaziyatlarda takroriy kuzatuv va topshiriqlar talab etiladi.

Interaktiv raqamli hikoyalar o‘quvchilarning axloqiy tanlov va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun imkoniyat yaratadi. Biroq ushbu imkoniyatlardan foydalanish hikoyaning mazmuni, o‘qituvchining pedagogik mahorati va muhokamaning qanday tashkil etilishiga bog‘liq.

Birinchidan, hikoyadagi axloqiy muammo o‘quvchi uchun tushunarli va hayotiy bo‘lishi kerak. Haddan tashqari murakkab yoki bolaning tajribasiga mos kelmaydigan vaziyatlar mustaqil fikrlash o‘rniga chalkashlik keltirib chiqarishi mumkin.

Ikkinchidan, o‘quvchining qarori faqat tayyor javoblar bilan cheklanmasligi maqsadga muvofiq. Ayrim vaziyatlarda bir nechta maqbul yechim bo‘lishi mumkin. Masalan, nizoni hal qilishda o‘quvchi avval suhbatlashish, yordam so‘rash yoki vositachi orqali kelishuvga erishish variantlarini taklif qilishi mumkin. O‘qituvchi har bir taklifning oqibatlarini tahlil qilishga yo‘naltirishi lozim.

Uchinchidan, raqamli hikoya real hayotdagi axloqiy mas’uliyatning o‘rnini to‘liq bosa olmaydi. Shu sababli hikoya asosidagi mashg‘ulotlar rolli o‘yinlar, jamoaviy muhokamalar, hayotiy kuzatuvlar va amaliy topshiriqlar bilan to‘ldirilishi kerak.

To‘rtinchidan, raqamli vositalardan foydalanishda ekran qarshisida o‘tkaziladigan vaqt, kontentning yoshga mosligi, mualliflik huquqi va shaxsiy ma’lumotlar xavfsizligi hisobga olinishi zarur. Texnik imkoniyatlari cheklangan ta’lim muassasalarida hikoyaning bosma kartochkalar, rasmlar va o‘qituvchi boshqaruvidagi muhokama orqali tashkil etiladigan shakllaridan ham foydalanish mumkin.

Taklif etilgan metodikaning samaradorligini aniqlash uchun tajriba-sinov ishlari tashkil etilishi mumkin. Bunda o‘quvchilarning dastlabki va yakuniy natijalari muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, qarorlarni asoslash, oqibatlarni baholash va refleksiya ko‘rsatkichlari bo‘yicha taqqoslanadi. Natijalar mavjud bo‘lmaguncha, metodikaning samaradorligi isbotlangan deb emas, balki nazariy jihatdan asoslangan va amaliy tekshiruvni talab qiladigan yondashuv sifatida talqin qilinishi lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Interaktiv raqamli hikoyalar o‘quvchilarning axloqiy tanlov va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan zamonaviy pedagogik vositalardan biri hisoblanadi. Ular axloqiy muammolarni hayotiy vaziyatlar orqali yoritish, muqobil qarorlarni taqqoslash va tanlov oqibatlarini tahlil qilish imkonini yaratadi.

Tadqiqotning nazariy-metodik tahlili asosida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

1. Axloqiy tanlov ko‘nikmasini rivojlantirish o‘quvchilarga tayyor xulosalarni yetkazish bilan cheklanmasdan, ularni muammoli vaziyatni mustaqil tahlil qilishga jalb etishni talab qiladi.
2. Interaktiv raqamli hikoyalar muqobil yechimlarni tanlash va ularning ehtimoliy oqibatlarini kuzatish orqali qaror qabul qilish jarayonini ko‘rgazmali tashkil etish imkonini beradi.
3. Metodikaning asosiy bosqichlari muammoni anglash, muqobil variantlarni aniqlash, oqibatlarni baholash, qaror qabul qilish va refleksiyani o‘z ichiga oladi.
4. O‘quvchilarning ko‘nikmalarini baholashda tanlangan javobdan tashqari, qarorni asoslash, boshqalarning manfaatlarini hisobga olish va o‘z xatti-harakatlarini tahlil qilish qobiliyati ham e’tiborga olinishi zarur.

5. Interaktiv hikoyalardan foydalanish samaradorligini aniqlash uchun amaliy tajriba-sinov ishlari, pedagogik kuzatuv va takroriy diagnostika natijalariga tayanish lozim.

Shunday qilib, interaktiv raqamli hikoyalarni "Tarbiya" fani mashg'ulotlariga maqsadli integratsiya qilish o'quvchilarda axloqiy vaziyatlarni tahlil qilish, mas'uliyatli qaror qabul qilish va o'z tanlovini asoslash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun istiqbolli metodik yo'nalishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 2020-yil 23-sentabr, O'RQ-637-son. - https://lex.uz/docs/5013007
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-son qarori. Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida. - https://lex.uz
3. Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. - Toshkent: O'qituvchi, 1996.
4. Xodjayev B. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. - Toshkent: Sano-standart, 2017.
5. Jabborova O., Umarova Z. Boshlang'ich ta'limda "Tarbiya" fanini o'qitish metodikasi. - Toshkent: Zebo Print, 2022.
6. Qurbonova B.Q., Madaminova S.A. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining axloqiy-ma'naviy qadriyatlarini shakllantirish // Journal of IQRO. - 2025. - B. 80-84. - https://doi.org/10.71337/inlibrary.uz.iqro.68977
7. Maxsetova Z.T. Yozma nutqni rivojlantirishda raqamli hikoyalashning pedagogik va lingvistik imkoniyatlari // Science Time Journal. - 2026. - J. 4, № 2. - B. 757–762. - https://doi.org/10.66345/stj.v4i2.5148
8. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. - Toshkent: Iste'dod, 2008.

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi
13.00.02 Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha)
13.00.07 Ta’limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI

Mas’ul muharrir: Ramzidin Ashurov
Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov
Musahhih: Alibek Zokirov
Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №10(3)

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali 26.09.2023-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C–5669363 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.